



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2014-yil 19-dekabrdan
0055-raqam bilan qayta ro'yxtatga olingan.

2018-yil. 6-son.

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV

Nizomiddin MAHMUDOV

Kadirbay BEKTURDIYEV

Nargiza RAHMONQULOVA

Mamatqul JO'RAYEV

Maqsudjon YO'LDOSHYEV

Sirojiddin SAYYID

Jabbor ESHONQULOV

Abdurahim NOSIROV

Lutfulla JO'RAYEV

(bosh muharrir o'rinnbosari)

Shahnoza JO'RAYEV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV

Ergesh ABDUVALITOV

Manzura DADAXO'JAYEVA

Lutfullo JO'RAYEV

Ehsan TURDIQULOV

Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Dono XO'JAYEVA

Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyo't ta'limi'dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualiflarning tahririyat nuqtayi nazariiga muvoqiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 21.06.2018-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «SANO-STANDART» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroko'chasi 100. Buyurtma № 17-661. Adadi 11700 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
**LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING** | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

- | | |
|--|---|
| Abdurahim Nosirov. O'quvchining kundaligidagi baho | 3 |
| Nilufar Abduraxmonova, Jasur Isroilov, San'at Matlatipov. O'zbek tilli lotin alifbosiga uchun klaviatura yoki "unicode" masalasi | 6 |

AKADEMIKLAR SUHBATI

- | | |
|--|---|
| Nilufar Namozova. Adib, olim, fan arbobi | 8 |
|--|---|

TA'LIM BILMAS SABOQLAR

- | | |
|--|----|
| Dilorom Ergasheva. Kitob – bebabaho xazina | 11 |
|--|----|

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

- | | |
|--|----|
| Shohida Nishonova. Tovushlar jilvasi | 12 |
| Zulfiya Pardayeva. "Aqliy hujum" – fikrflash omili | 14 |

- | | |
|--|----|
| Mohigul Fozilova. Qiziqarli topshiriqlar | 15 |
|--|----|

METODIK TAVSIYA

- | | |
|--|----|
| Nosirjon Uluqov. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari | 16 |
|--|----|

- | | |
|--|----|
| Shoira Normatova. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda o'yin texnologiyalari | 18 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Surayyo Shermuhamedova. Ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida isloh qilish | 20 |
|---|----|

- | | |
|--|----|
| Husniddin Suyunov, Gulhayo Jo'rayeva. Adabiy ta'limda savol va topshiriqlar ustida ishlash tamoyillari | 21 |
|--|----|

- | | |
|--|----|
| Hilola Suyunova. O'quvchilarini ijodiy fikrflashga o'rgatish | 23 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Zumradkhon Teshaboeva. Problems of developing sociolinguistic competence of EFL teachers .. | 24 |
|---|----|

ADABIY TAQVIM

- | | |
|---|----|
| Qozoqboy Yo'ldosh. Manqurtlikning jono'rtar tasviri | 26 |
|---|----|

TAHLIL

- | | |
|--|----|
| Akram Hamdamov, Obidjon Karimov. Abdulla Oripovning "Munojotni tinglab" she'ridagi o'ziga xos mo'jiza haqidagi | 30 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Elmurod Nasrullayev. G'afur G'ulom talqinida Navoiyning lirik timsoli | 32 |
|---|----|

- | | |
|---|----|
| Nozima Qozoqova. Murojaat birliklarining funksional-pragmatik xususiyatlari | 34 |
|---|----|

TARJIMASHUNOSLIK

- | | |
|---|----|
| Bashorat Bahriiddinova. "Olam mening nigohimda" | 35 |
|---|----|

TADQIQOLAR

- | | |
|--|----|
| Dilnavoz Yusupova. Mumtoz adabiyotda mutalavvun hodisisi va ritmik urg'u | 36 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Sanobar Kamolova. Atoqli otlar oldida determinativlar q'llanishining o'ziga | 38 |
|---|----|

- | | |
|----------------------------------|----|
| xos semantik xususiyatlari | 38 |
|----------------------------------|----|

- | | |
|---|----|
| Nilufar Dil'murodova. Adabiyotda psixologik va estetik talqin | 39 |
|---|----|

- | | |
|---|----|
| Saadat Kambarova. Mutolaaga qiziqitirishga doir bir usul xususida | 42 |
|---|----|

- | | |
|---|----|
| Jamilha Asqarova. Ertaklarni nomlashning o'ziga xosligi | 45 |
|---|----|

- | | |
|---|----|
| Qodirjon Mo'yдинов. Sud nutqida ayrim terminlarning qo'llanishi | 47 |
|---|----|

Приложение

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

- | | |
|---|---|
| Гулноза Юсупова. Формирование гуманистических ценностных ориентаций у учащихся старших классов..... | 1 |
|---|---|

МЕТОДИКА. ОПЫТ

- | | |
|---|---|
| Махмуджон Рахимов. Повторенье – мать ученья | 4 |
|---|---|

- | | |
|---|---|
| Максуда Нажмиддинова. Как прекрасен и велик русский, близкий всем язык! | 6 |
|---|---|

- | | |
|-------------------------------|---|
| Тамара Хатамова. Погода | 8 |
|-------------------------------|---|

- | | |
|---|----|
| Лариса Ким. Безличные предложения | 10 |
|---|----|

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

- | | |
|--|----|
| Анарпой Калдигекова, Инесса Морхова. Роль современного преподавателя в образовании | 12 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Сайдида Султанова. Методическое обеспечение профессиональной направленности | 14 |
|---|----|

- | | |
|--------------------------------|----|
| студентов языковых вузов | 14 |
|--------------------------------|----|

- | | |
|--|----|
| Шахноза Холматова. Особенности креативного мышления студентов в процессе обучения .. | 15 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Феруза Джираева. Самостоятельная работа студентов – важный фактор в изучении иностранных языков | 17 |
|---|----|

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

- | | |
|---|----|
| Гулчехра Саримсакова. Коммуникативная направленность учебного диалога | 19 |
|---|----|

- | | |
|--|----|
| Азиза Бедилова. Эффективное формирование системы ценностей на материале пословиц и поговорок | 20 |
|--|----|

- | | |
|--|----|
| Нодира Гафурова. Важность дистанционного обучения в современном образовании .. | 22 |
|--|----|

- | | |
|---|----|
| Мархабо Эрназарова. Перевод как один из способов обучения | 24 |
|---|----|

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

- | | |
|---|----|
| Ёркинжон Одилов, Феруза Мусаева. Лингвокультурный подход к изучению | 26 |
|---|----|

- | | |
|---------------------------|----|
| узбекских диалектов | 26 |
|---------------------------|----|

МЫСЛИ ВСЛУХ

- | | |
|--|----|
| Садбарг Жумаева. Изменение отношения студентов к расширению своего | 29 |
|--|----|

- | | |
|--------------------------------|----|
| фразеологического запаса | 29 |
|--------------------------------|----|

- | | |
|--|----|
| Люба Ашурова. Светлое имя – Пушкин | 30 |
|--|----|

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

MUTOLAAGA QIZIQTIRISHGA DOIR BIR USUL XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish, badiiy asar mazmunini tushunib yetish, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlar yechimini topishga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlarning mutolaaga rag'batni oshirishi hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o'mi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil mutolaa, savol va topshiriqlar, o'qishdan oldingi savol va topshiriqlar, o'qish davomidagi savol va topshiriqlar, o'qishdan keyingi savol va topshiriqlar.

Аннотация. В статье показана заинтересованность учащихся в чтении, осмыслении содержания художественного произведения, повышении мотивации к чтению, к вопросам и заданиям, направленным на решение проблемных ситуаций, а также формирование культуры чтения.

Ключевые слова: самостоятельное чтение, вопросы и задания, задаваемые перед чтением, вопросы и задания, задаваемые в процессе чтения, вопросы и задания, задаваемые после чтения.

Annotation. The article shows the students' interest in reading, understanding the content of work of art, increasing the motivation for reading, questions and tasks aimed at solving problem situations, and forming a reading culture.

Keywords: independent reading, questions and tasks, asked before the reading, questions and tasks asked in the process of reading, questions asked after reading the job.

O'quvchilarda badiiy asar mutolaasiga qiziqish uyg'otish adabiyot o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyaning mushtarak muammosi sifatida soha xodimlarini ko'pdan buyon qiziqtirib keladi. Ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyatimiz davomida yuzaga kelgan ushbu maqolada muammoning yechimini uch bosqichli savol va topshiriqlar tizimi misolida topishga harakat qildik. Binobarin, savol va topshiriqlar badiiy asarning tasvir obyekti, matn tarkibini mazmunli ochish vositasi bo'lib, u o'quvchilarni obrazlilikni tasavvur etish va kitob bilan hayot o'rtaсидаги aloqadorlik xususida mushohada yuritishga undaydi.

Savol va topshiriqlar o'quvchini fikrلash jarayoniga olib kiradi. Agar o'quvchi fikrلash jarayonida nafaqat kitobi, balki hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribalariga tayanib mulohaza yuritsa, bu uning aqliy faoliyatini yanada faollashtiradi, tafakkurini o'stiradi.

Savol va topshiriqlar nafaqat umumiy mavzu, balki asosiy g'oya, ma'lum fikr va ma'no jihatidan uzviy bog'liq bo'lgani ma'qul. Yangi materialni o'rganish, mustahkamlash va umumlashtirish jarayonida beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchilarining bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Bilimni baholashda esa javobning to'liq va to'g'riligi, o'rganilgan materialni tushunish darajasi hamda axborotning mantiqiy izchilligi hisobga olinishi zarur.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi sohasida savol va topshiriqlar ustida ishlash muammolari bir qator metodist olimlar izlanishlarida tadqiq etilgan. Jumladan, M.Mirqosimova tomonidan turli janrdagi asarlar tahlilida darslikda keltirilgan savol-topshiriqlar badiiy asarning shakl unsurlari bilan mazmun yaxlitligini uyg'un holda tushunishga qaratilishi nuqtayi nazaridan o'rganilsa¹, Q.Husanboyevanining ilmiy izlanishlarida uy vazifalarini so'rashning asosiy quroli sifatida izohlanadi.²

Professor R.Niyozmetovaning tadqiqot ishida esa savol-topshiriqlarning matnga nisbatan joylashtirilishiga

ko'ra o'qishgacha va o'qishdan keyingi ikki turi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida adabiy asarni o'qib-o'rganishlari mobaynida ko'rsatadigan faoliyatiga bog'liq holda tuzilishiga e'tibor beriladi.³

Amaldagi ba'zi darsliklarda yozuvchi hayoti haqida so'zlab berish, ijodkorning qaysi asarlarini bilishi mazmunidagi savol-topshiriqlar bugungi kunda o'quvchilarni tahlilga yo'llash, nazariy bilimlarni amalda yo'llash layoqatlarini shakllantirish, mutolaaga qiziqtirishdan ko'ra ma'lumotlarni shunchaki yodda saqlab qolish, matnni qayta hikoya qilib berish kabi hollarga sabab bo'lmoqda. Bu borada mualliflar darslik yaratish jarayonida adabiy ta'limga oid tadqiqot ishlarida ilgari surilgan g'oya va tavsiyalarga ham tayanishsa muammolar ma'lum darajada bartaraf etiladi, deb o'yaymiz.

Badiiy asar yuzasidan tuziladigan savol va topshiriqlarga qo'yiladigan metodik talablar H.Suyunovning nomzodlik dissertatsiyasida alohida tahlilga tortilgan bo'lib, o'quvchining mustaqil va ijodiy tafakkuri, xotirasini rivojlantirish, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish, so'z ma'nosini izohlash asosida nutqni o'stirish, yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish hamda qahramonlar xarakterini tahlil qilishiga ko'ra turkumlanadi.⁴

Rivojlangan xorij davlatlarida masalaga qay darajada yondashilganini o'rganganimizda ayon bo'ldiki, Yevropa va AQSH davlatlari o'qitish tizimida savol-topshiriqlar joylashish o'rniga ko'ra o'zgacharoq: asarni o'qish davomida (matn ichida) ta'kid va murojaatlar tarzida kelishi, shuningdek, o'quvchi diqqatini jaib etadigan ko'rinishlarda joylashtirilishi bilan farqlanadi.

Darslik va majmualardan o'rin olgan savol va topshiriqlar qurilishi shaklan bir necha bosqichda, mazmunan esa adabiyotning san'at sifatidagi o'mini belgilash, yozuvchi uslubi individualligini tekshirish, muayyan adib ijodi tadqiqotchilarini o'rganish, tanqidiy fikrلashga yo'naltirish,

asarda davr ruhining aks etishi, faol o'qish strategiyalari, o'quvchilar fantaziyasi hamda egallagan hayotiy tajribalari kabi omillarga tayanib tuzilishi; dizayni zamon va makon nuqtayi nazaridan: asarning yaratilish tarixi, mazmuniga oid shaxs, predmet yoki me'moriy obidalar tasvirlarining keltirilishi, turli o'lcham va rangdagi shriftlarda, hoshiyadan tashqarida berilishi bilan noan'anaviylik kasb etadi (xususan, "MC Dougal Littell Literature. World literature".⁵)

Rossiyalik metodist olimlar S.Zinin, E.Zinin, N.Belyayeva, V.Medvedev, T.Davidova, V.Pugach, Z.Smelkova, O.Suxarina, E.Karsalova amalda matn tahsilining bir qator samarali usullarini taklif etadilar. Bular – namunaviy rejalar, modul-asoslar va "tayanch" materiallar. S.A.Zininning fikricha, tahlilni qadamma-qadam izchil tarzda amalga oshirishga yordam beradigan "tayanch" materiallar maqsadi metodik xilma-xil va ayni paytda yagona, ya'ni o'quvchilarning analitik iqtidori va ijodiy salohiyat oshirishga qaratiladi. Bu turdag'i tahlil modeli vazifalarning asosiy qismi materialga savollar shaklida berilishidadir.⁶

Ko'rindaniki, savol-topshiriqlar o'quvchini mutolaaga qiziqirishi, fikrashga undashi, kontekstni tushunishga tayyorlashi, tahlilga yo'naltirishi, sintez, baho berish, mavzuni boshqa fanlar, eng muhimi, hayotga bog'lay olishi nuqtayi nazaridan ham samaralidir.

O'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini kichik maktab yoshidan boshlab shakllantirishga doir optimal va rag'batlantiruvchi texnologiyalarni tasniflar ekan, professor N.Egamberdiyeva matn ustida ishslash jarayonini o'qishgacha, o'qish davomida va o'qishdan keyin uch bosqichda tashkil etish ijobjiy samara berishiga alohida urg'u qaratadi.⁷ Binobarin, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini aniq yo'nalistishga solishi, nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olishini ko'zda tutishi barobarida matn bilan ishslashga oid savol va topshiriqlarni quyidagicha rejalashtirishi maqsadga muvofiq:

- o'qishdan oldin (asarga qiziqlish uyg'otish, matn mavzusi haqida mushohada yuritishga yo'naltirish, kontekstni tushunishga tayyorlash);

- o'qish davomida (bilish, tushunish, tahlil qilish, asarning muhim o'rinnlariga ahamiyat qaratish, so'z ma'nosidagi ishslash);

- o'qishdan keyin (sintez, qo'llash, baho berish, mustaqil ishslash).

O'quvchilarni badiiy asarlarni tushunishga tayyorlash strategiyalari xususidagi izlanishlarida taddiqotchi K.Jalilov o'z fikrlarini Vilyam Grabe, Robert Slavin, Richard Bich, Janet Allen kabi g'arblik uslubchi olimlarning qarashlariga tayanib asoslashga harakat qilgani kuzatiladi. Jumladan, "Kognitiv nazariya yutuqlarini hisobga olgan holda adabiyot darslarida badiiy matn bilan ishslash va matnni tushunishga yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan strategiyalardan biri matnni o'qishdan oldin o'quvchida mavjud bo'lgan sxemani faollashtirishdir. Sxemani faolashtirishning bir qancha yo'llari mavjud: o'quvchi oldiga aniq maqsadlar qo'yish, o'qiladigan asarning mohiyatiga bog'liq savollar berish, matnni tushunishga yordam beradigan bilimlarni yodga olish, matndagi tushunilishi qiyin so'zlarni oldindan o'rgatish".⁸

Bu borada yo'naltiruvchi savol va topshiriqlarning muallif kechinmalarini chuqur idrok etish, fikrni muayyan izchillikda ifodalash va asoslashga imkon berishini ta'kidlash mumkin. Quyida badiiy asarda qo'yilgan asosiy masala mohiyatini ochish maqsadi nazarda utilgan savol-

topshiriqlar tizimiga misollar keltiramiz.

1-namuna (6–7-sinflarda N.Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasini mustaqil o'qib-o'rganishga doir savol va topshiriqlar).

Asarni o'qishdan oldingi savol va topshiriqlar

1. Qadrli o'quvchi, xonadoningizda jonivorlardan biortasi parvarish qilinsa kerak. Hayvonlarning o'ziga xos dunyosi haqida nima deya olasiz?

2. Dala-yu dasht, o'rmon, tog'-u toshlarda yashovchi hayvonlarning ham o'ziga xos hududi va u yerda qat'iy tartib mavjudligi haqida nimalarni eshitgansiz? Shu haqda so'zlab bering.

3. Begona jonzotlar o'zlarini bahaybat va kuchli deb tasavvur qilishi uchun ba'zi hayvonlar daraxtlarga maxsus belgi qoldirishi haqida o'qiganmisiz? Agar biror joyda o'shanday "ishoralar"ga ko'zingiz tushgan bo'lsa, ularni do'stlaringizga tasvirlab bering.

4. Hayvonlarga tegishli "maxsus belgi", "shaxsiy mulk" haqidagi lavha va ma'lumotlar kimlarning qaysi asarlari yoki filmlarida uchraydi?

5. Biror marta bo'lsa ham xayolingizdan hayvonlar ham o'z qondoshlarini tanirmikan, degan fikr o'tganmi?

6. Hayvonlardagi o'zaro munosabatlarni haqida nima deya olasiz? Qaysi hayvonlarni bir-biriga yaqin "do'st" yoki "dushman" deyish mumkin?

7. Qissani o'qish davomida Oqbo'yinning xatti-harakatlari siz bilan sevimli jonivorlaringiz o'tasida bo'lib o'tgan qaysidir voqealarni yodga solsa, shu kabi lavhalarni belgilab, mutolaas kundaligingizga qayd etib boring.

Asarni o'qish davomidagi savol va topshiriqlar

(Qissadan parcha asosida)

"... Ko'p o'tmay muylishda Yoldor ko'rindi. Ortidan bo'ybastiga qarab yana to'rtta sheriqi qator kelardi. Aftidan, qorinlari xiyla to'q, shekilli, qadam olishlari lanjroq, hatto uzoq-yaqindan eshitilayotgan hamjinslarining uvlashlariga ham ko'pda e'tibor berishmasdi. Saf oxirida kelayotgan jussasi kichikroq bo'rining nimadandir betoqatanishini hisobga olmaganda, to'da tinch va sokin vaziyatda olg'a siljirdi.

Ammo pistirmaga yetmish-sakson odim qolganda Yoldor kutilmaganda sergak tortdi. To'xtadi. Cho'nqaydi. Tumshug'ini ko'kka cho'zib iskalandi. O'tgan kuni Oqbo'yinni almoq qilgan suyagi buzuq bo'ri unga baqamtii kelgach, ikkisi nima haqdadir uzoq kengashdilar.

...Aziz o'quvchi, yirtqichlar nima haqida maslahatlashib kengashganini fahmladingizmi? Voqealarni diqqat bilan kuzatishda davom eting.

...So'ngra shamolda vahimali shovullayotgan yulq'unzorga tikilganicha turib qolishdi. Ularning nimadandir hadik olgani aniq edi.

Yirtqichlar tabiatan juda bardoshli bo'lishadi. Ana shu xususiyatlari tufayligina ular, ko'pincha, hayotlarini xavf-xatardan asrab qolishadi. Ozgina shoshqaloqlik yoki ehtiyojsizlik hamisha o'lim bilan tugaydi. Yoldor ko'ngil bezovtaligini aniq idrok etolmagani uchun ham sabr qilishga qaror qilgandi. Bu yerda aql-idrokidan ham ko'ra sabr-toqat ko'proq ish beradi. Yulq'unzorda mabodo ovchi bekingan bo'lsa, baribir o'zini bildirib qo'yadi. Yoldor buni ko'p sinagan. Agar it bo'lsa, gar shunga jur'ati yetsa, hademay irillagancha yugurib chiqadi. Qo'pol bu jonivorlar kutishdan ko'ra qutqu solishni afzal bilishadi. Ammo Yoldor bu gal adashgandi. Adashgani shundaki, u Olaparni xayolidan chiqargandi. Yulq'unzor Olaparga emas, Oqbo'yinga yaqinligi tufayli hatto hurishga erinadigan

Olaparning bu yerga kelishini tasavvurga sig'dirolmasdi.

To'g'ri, u bekorga vaqt yo'qotmay, yulg'unzorni aylanib o'tishi ham mumkin edi. Unda ko'ngliga shubha solgan xatar jumboqligicha qolib, keyin yuragi g'ash tortib yuradi. Bundan tashqari yana o'tib-qaytishi bor. Agar xavfni bugun aniqlamas ekan, ertaga bu yerlarga qadam bosmoqni o'ylamasa ham bo'ladi.

...Aziz o'quvchi, jamoani boshqarish hayvonlarda qanday xususiyatlarni talab qilar ekan?

...Chunki bir xavflangan joydan ikkinchi bor o'tishda hadik va qo'rquvdan bo'ri zoti xiyla et tashlaydi. Baxtga qarshi shamol ham uning zarariga ishlamoqda edi".⁹

– Muhtaram o'quvchi, mana, mutolaani ham yakuniga yetkazdingiz. Albatta, sevimli qahramoningizga aylangan Oqbo'yining halokati sizni quvontirmadi. Karim podachining fojjasiga ham achindingiz, shundaymi? Endi esa sir-asrорlarga to'la hayvonot olamining qaysi jihatlarini kashf qilgанингизни sinamoq uchun sizga ba'zi savollarni beramiz.

Asarni o'qishdan keyingi savol va topshiriqlar

1. Inson va tabiat o'tasidagi muvozanat buzilgan yerda qanday illatlar qalqib chiqadi?

2. Siz hayotda Karim podachiga o'xhash biror kimsaga duch kelganmisiz? Agar shunday bo'lsa, ular qaysi jihatlar bilan o'xhashliklarini solishtiring.

3. Juftga sodiqlikda ba'zi insonlar bo'ri, ayyiq, sher kabi yirtqichlardan o'rnak olsa arziydi, qabilidagi fikrlarni qay darajada to'g'ri deb bilasiz?

4. Jon berayotganda Karim podachining xayolidan nimalar o'tgan bo'lishi mumkin? Qilgan yovuzliklaridan afsuslanishmi yoki buning aksi?

5. Siz yashayotgan hududda hadaha qamchi, dov, oqquray kabi so'zlar qanday ma'noni anglatadi?

6. Sizningcha, asar boshqacha yakun topishi mumkinmidi?

Topshiriq: Karim podachining mahobatli jonzotni o'ldirishga ko'zi qiymay fikridan qaytishi yoki kuchugining halok bo'lganini eshitgan Rasulning ahvolini tasvirlab hikoya tuzing.

2-namuna (8–9-sinf o'quvchilariga mustaqil mutolaa uchun tavsiya qilish mumkin bo'lgan Shavkat Rahmonning "Iqror" she'rini o'rganishga oid savol va topshiriqlar).

Asarni o'qishdan oldingi savol va topshiriqlar

1. Bolalikni beg'uborlik, yoshlikni orzular fasli deyishadi. Siz uni qanday ranglarda ko'rasiz?

2. Bolaligingizdagi sho'xliklaringizni bir eslang-a! Bilibilmay qilgan "ayb"laringizni bo'yningizga olish oson kechganmi?

3. Siz iqror bo'lishni qanday tushunasiz? Bu qilingan nojo'ya ishning ko'pchilik oldida tan olinishimi yoki o'zgalarni e'tirof etishmi?

4. Har bir insonning tug'ilgan burjiga mos ramziy daraxti bo'lishi haqida eshitganmisiz?

5. Badiiy adabiyotda daraxt obrazni qanday ma'no anglatishidan xabaringiz bormi?

6. Quyidagi she'rda "yashil shajar" iborasining qo'llanilishiga alohida e'tibor qarating. Lug'atlardan "shajar" so'zining ma'nosini toping.

O'qish davomidagi savol va topshiriqlar

Iqror

Rubobiy she'r yozsam...

Shu o'rinda sizni bir muddatga to'xtatishimizga to'g'ri keladi. Aytingchi, sizga "rubobiy she'r" jumlesi tanishmi

yoki bu haqda ilk bora eshityapsizmi? Sizningcha, rubobiy she'r o'zi nima? Undan taraladigan ohangni xayolan eshitishga harakat qilib ko'ring.

Qaytsam bir nafas...

hamisha musaffo chashmani ko'rsam,
qoraygan cho'qqilar qoriga qarab,
bir nafas xayolchan o'smirga do'nsam.

Banddag'i kayfiyat sizga ham yuqdimi? Olis bolalikni qo'msagan shoir ruhiyatidagi qanday kechinmalarni tuyganday bo'ldingiz? Lahzalik bo'lsa-da o'tmishga qaytishdan ne naf?

Voh, o'shal lahzalar...

o'tdimi butkul
gunafsha atirli tansiq tuyg'ular.

Sizningcha, tuyg'uning ham bo'y-ifori bo'ladimi?
Gunafsha atirli tansiq tuyg'ular nimaning aksi?

Sahargi bog'larni uyg'otgan bulbul,
oylarning nurlarin elagan suvlar.

Oy nurlarining suvdagi mavjilanishi... Sokin kechalarda suv bo'yida o'tirib, she'rdagi kabi manzarani kuzatganmisiz?

Yashil shajar edim...

Qandoq sog'indim...

Ko'zimni yashnatsa rubobiy ranglar.
Qaysi bir dunyoda buncha og'rindim,
Dilimni qaritdi besamar janglar.

Rubobiy ranglar tashbehini so'z bilan ta'riflay olasizmi?
So'nggi misralarda ta'kidlanganidek, bu qanday jang ediki,
dil ozor topsa?

Men jangchi emasdim,
men shoir edim,
nihoyat, shoirdan ko'ra zabitman,
har nafas muslimon millatim dedim,
nafsiqa kuyganlar keldi oqibat.

Jangchilikdan tonib, shoirkni tan olish, so'ngra zabitlikni e'tirof etishni qanday tushunish mumkin? Bu o'rinda "nafsiqa kuyganlar" deyilganda kimlar nazarda tutilmoxda?

Haromni xush ko'rgan maslakfurushlar
zig'irday himmatin qilganda minnat,
yaproqday sarg'ordim buyuk urushda
musulmon yo'q edi,
yo'q edi millat.

Bu qanday "buyuk urush"ki, unda tirik bir vujud go'yo yaproq kabi qiyofa kasb etsa?

Bas, qushlar sayrogi,
Yaproqlari mo'l
yashil shajar kabi turay mushakkal,
ilhomim haqida so'ylasınlar xo'b,
zaharli tilimdan to'kilsin shakkar.

Hamisha "navqiron daraxt" kabi turish ishtiyoqi kimlarga xos?

Rubobiy sabolar, ruhimdan esing,
Qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon.
Voh, yalang shoxlarim qilichday keskir,
Bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on.¹⁰